

“Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi!” va “Biz birgalikda korrupsiyani to‘xtatamiz!”

Joriy yilning 5-aprel kuni Termiz davlat universiteti “Amaliy matematika va intellektual texnologiyalari” fakulteti faollar zalida korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi va Termiz shahar adliya bo‘limi xodimlari ishtirokida oliygo‘h tyutorlari orasida **“Korrupsiya - taraqqiyot kushandasi!”** va **“Biz birgalikda korrupsiyani to‘xtatamiz!”** mavzularida hamda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat Kodeksi, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi va “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati bo‘yicha davra suhbatini o‘tkazildi.



Davra suhbatida Termiz shahar adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti - **S.Akramov**, oliygoh korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **U.Devonov** va bo‘lim bosh mutaxassisi **A.Mansurov** hamda 57 nafar tyutorlar qatnashishdi.



Tadbirda so‘zga chiqqanlar korrupsion holatlarning oldini olish, korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish, bunday holatlarga duch kelinganda xabar berish tartibi va oliygohning “Odob axloq kodeksi” hamda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat Kodeksi, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi va “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunlarning mazmun - mohiyati va ahamiyati xususida ma’ruza qilishdi.



«Biz korrupsiyaga qarshimiz»

Joriy yilning 17-aprel kuni Termiz davlat universiteti “Milliy libos va san’at” fakultetining 106 auditoriyasida tyutorlar va talaba yoshlar ishtirokida «Biz korrupsiyaga qarshimiz» mavzusida davra suhbat tadbiri amalga oshirildi.



Davra suhbatida universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **U.Devonov**, bo‘lim bosh mutaxassisi **A.Mansurov**, “Milliy libos va san’at” fakulteti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari **Z.Zairov**, 5 nafar tyutorlar va 100 nafar talaba yoshlar qatnashishdi.

Tadbirda soʻzga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida maʼruza qilishdi. Shuningdek, ular oʻz chiqishlarida aholining barcha qatlam vakillari, xususan, kelajak egalari boʻlgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz ruhda taʼlim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida taʼkidlab oʻtishdi.



“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish”

Joriy yilning 19-aprel kuni Termiz davlat universiteti “Kimyo” fakulteti faollar zalida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan **“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish”** vazifasiga ko‘ra universitet rektori tomonidan 2023-yil 18-dekabr kuni tasdiqlangan reja-jadvalga asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari bilan oliygohning «Fizika - matematika» fakulteti professor-o‘qituvchilari, tyutorlari va talaba yoshlari ishtirokida **“Biz korrupsiyaga qarshimiz”** va **“Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq”** mavzularida uchrashuv tadbiri amalga oshirildi.



Davra suhbatida “Fizika – matematika” fakulteti dekani **A.Safarov**, Surxondaryo viloyati IIB huzuridagi tergov boshqarmasi tergovchisi - **Sh.Raximov**, Surxondaryo viloyati IIB jinoyat qidiruv boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimi - **Sh.Narzullayev**, Surxondaryo viloyati Sudi sudlov xay’ati sudyalari - **Z.Xo‘jamurodov**, **O‘.Mamadiyev**, Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi natariyat, advokatura va huquqiy xizmatlar sho‘basi katta maslahatchisi – **A.Malikov**, Surxondaryo viloyati Termiz shahri Adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsultlari – **V.Nazarov**, **B.Sharipov**, Surxondaryo viloyati Termiz shahri Adliya bo‘limi davlat xizmatlari markazi bo‘limi boshlig‘i - **Z.Maxmadiyorov**, Surxondaryo viloyati yoshlari Agentligi viloyat boshqarmasi bosh mutaxassisi – **S.Murodov**, oliygoh korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **U.Devonov**, bo‘lim bosh mutaxassisi **A.Mansurov**, IIB profilaktika inspektori – **U.Odinayev**, hamda 30 nafar professor-o‘qituvchilar, tyutorlar va 500 nafar talaba yoshlar qatnashishdi.



Tadbirda soʻzga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida maʼruza qilishdi. Shuningdek, ular oʻz chiqishlarida aholining barcha qatlam vakillari, xususan, kelajak egalari boʻlgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz ruhda taʼlim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida taʼkidlab oʻtishdi.

Shu bilan birga, maʼruzachilar, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala boʻlib, bu borada nafaqat masʼul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir boʻlmogʻi maqsadga muvofiqligini aytib oʻtishdi. Shundan kelib chiqib, qayerdadir taʼmagirlik, poraxoʻrlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq boʻlmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan saʼy-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmogʻimiz burch va masʼuliyatimizga aylanmogʻi darkorligini taʼkidlab oʻtishdi.



**"Biz tahsil olayotgan ta'lim muassasasida korrupsiyaga o'rin yo'q",
"Talabalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish"**

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakultetida Korrupsiyaga qarshi kurash "Komplaens nazorat" tizimini boshqarish bo'lim boshlig'i U.M.Devonov, bo'lim bosh mutaxassisi A.F.Mansurov, tyutorlar va Yoshlar ittifoqi yetakchisi O.Eshquvvatov ishtirokida "Biz tahsil olayotgan ta'lim muassasasida korrupsiyaga o'rin yo'q", "Talabalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish" mavzularida davra suhbatini tashkil etildi.



Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.



Iqtisodiyot va turizm fakulteti tyutori: Sitona Mardonova va Zebuniso Xurramova



"Korrupsiyaga qarshi kurashish", "Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish" va "Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish"

Joriy yilning 26-aprel kuni Termiz davlat universiteti "O'zbek filologiyasi" fakulteti 406 sonli auditoriyasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturining 25-bandida belgilangan. amalga oshirildi.



“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosobatni shakllantirish” vazifasiga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari bilan oliygohning «Ijtimoiy fanlar» fakulteti tyutorlari va talaba yoshlari ishtirokida **“Korrupsiyaga qarshi kurashish”, “Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish”** va **“Yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish”** mavzularida davra suhbatlari tadbiri

Davra suhbatida “Ijtimoiy fanlar” fakulteti dekani **N.Ochilov**, Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi jinoyat qidiruv boshqarmasi korrupsiyaga va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘limi katta tezkor vakili **Nafasov Jamshiddin Qurbon o‘g‘li**, Surxondaryo viloyati Sudi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati sudyalari – **Alimurodova Dilorom** va **Raximov Soxib** hamda Surxondaryo viloyati Sudi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati sudyalari – **Abrayev Ilxom** va **Ergashev Otabek**, oliygoh korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i **U.Devonov**, bo‘lim bosh mutaxassisi **A.Mansurov** hamda 4 nafar tyutorlar va 100 nafar talaba yoshlar qatnashishdi.



Tadbirda so‘zga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarini bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida ma’ruza qilishdi. Shuningdek, ular o‘z chiqishlarida aholining barcha qatlam vakillari, xususan, kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz ruhda ta’lim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida ta’kidlab o‘tishdi.

Shu bilan birga, ma'ruzachilar, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir bo'lmog'i maqsadga muvofiqligini aytib o'tishdi. Shundan kelib chiqib, qayerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkorligini ta'kidlab o'tishdi.



Shuningdek, ma'ruzachilar yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi va Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi jinoyat hamda jinoyat-protsessual kodekslariga kiritilgan yangi o'zgarishlarning mazmun - mohiyati va ahamiyati xususida ma'ruza qilishdi.

